

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KONTSENTRATSIYA QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR TADQIQOTLAR TAHLILI

Israilova Xusnida Adilovna,

Qo'qon universiteti Andijon filiali o'qituvchisi

Tel: (33) 950 72 72

E-mail: adilovna1989@icloud.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda kontsentratsiya qobiliyatini rivojlanadirishning pedagogik zaruriyati, bolalarda kontsentratsiya qobiliyatini rivojlanishtirishda ijtimoiy me'yorlarning o'zlashtirilishi, shuningdek bolalarda kontsentratsiyani rivojlaniruvchi asosiy omillar xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'limgacha, konsentratsiya, didaktik o'yinlar, kognitiv harakat, mashg'ulot, ijtimoiy ong, davlat ta'limgacha standarti, STEAM texnologiya.

Bugungi kunda uzlusiz ta'limning muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'limgacha bosqichiga e'tibor har qachongidan ortib bormoqda. Respublikamiz ta'limgacha tizimining boshlang'ich poydevori bo'lgan maktabgacha ta'limgacha sifatli va zamon talabi darajasida tashkil etilishini ta'minlash borasida keng qamrovli islohotlar, qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'limgacha tashkilotlarining xarakteriga ko'ra ta'limgacha mazmunini tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashtirish, ijtimoiy ong va tafakkurini, dunyoqarashini rivojlanirish doirasida ishlab chiqish davr talabidir. Bu o'rinda bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari, muassasa joylashgan geografik muhit, tolerantlik tamoyillari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligi hamda demografik vaziyat inobatga olinmog'i maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ta'limgacha mazmunini zamon talablariga mos shakllantirishda dunyodagi globallashuv jarayoni tamoyillari, xorijiy ilg'or tajribalar, mutaxassis olimlarning ilmiy-nazariy, metodik xarakterdagi g'oyalari va qarashlariga tayaniladi. Maktabgacha ta'limgacha tashkilotlari mazmunini shakllantirishda albatta pedagogik va psixologik qonuniyatlar, tamoyillar, shart-sharoitlar, omillar va boshqalar inobatga olinmog'i zarur.

Xususan, maktabgacha ta'limgacha tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'limgacha tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limgacha sifatli tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'limgacha tashkilotlari tizimini zamonaviy ta'limgacha dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'limgacha tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori¹ qabul qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'limgacha tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori² da mavjud tizimli kamchiliklar, maktabgacha ta'limgacha sohasida davlat siyosatini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan sabablar ko'rsatilgan.

"O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'limgacha tizimini 2030-yilgacha rivojlanirish Kontseptsiyasi"da esa "...maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'limgacha tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli Qarori / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami, 2017-y., 1-son, 11-modda, 35-son, 923-modda; Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018-y., 06/18/5483/1594-son; 01.01.2020-y., 07/20/4555/4257-son.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'limgacha tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami, 2017-y., 37-son, 984-modda; Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son.

estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish” masalasi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab qo'yildi”.³ Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan yuqorida Qaror va Farmonlar uzlusiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini hisoblangan mактабгача ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, mактабгача ta'lim tashkilotlarining davlat hamda nodavlat tarmog'ini kengaytirish, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlashda dasturilamalga aylandi.

“Ilk va mактабгача yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari”⁴ va “Ilk qadam”⁵ Davlat dasturining ishlab chiqilishi uzlusiz ta'lim tizimida mактабгача ta'limni samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlар yaratdi. Albatta mактабгача ta'limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan bu kabi islohotlar ota-onalardan tortib barcha pedagoglar bola tarbiyasi, uning ta'lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvini talab etadi.

Respublikamizda mактабгача ta'lim tashkilotlari yuzasidan olib borilayotgan islohotlarning negizi tarbiyalanuvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Mактабгача yoshdagi bolalarning o'quv-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish, bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida ota-onalar va jamiyatga tegishli bilimlar berishni tashkil etish va amalga oshirish, bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va jamiyat bilan o'zaro hamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirish – mактабгача ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning tub negizini tashkil etadi.

Mактабгача yoshdagi bolalar Davlat ta'lim standartlariga muvofiq quyidagi umumiy muhim kompetentsiyalarni egallashi lozim bo'ladi: kommunikativ, o'yin, ijtimoiy, bilish kompetentsiyalari. Mazkur kompetentsiyalarni egallashi bolaning yosh, ijtimoiy, jismoniy va aqliy rivojlanish jarayonining natijasi sifatida qaraladi. Mazkur rivojlanish jarayonida kontsentratsiyaning ahamiyati katta bo'lib, bu xususidagi ilmiy tadqiqotlarning salmog'i kengayib bormoqda. Amaliy jihatdan esa bolaning kontsentratsiyasini rivojlantiruvchi, diagnostika qiluvchi, baholovchi metodlar ortib borishi bolalar yashovchi ijtimoiy muhit, jamiyatning modernisatsiyalashuvi, globallashuv jarayonlarining bolalarga bo'lgan ta'sirida namoyon bo'lmoqda. Keng jamoatchilik, pedagoglar, shifokorlar, ota-onalar, barcha bolalar bilan bog'liq kasbiy faoliyatda kontsentratsiya masalasi alohida o'rinnegizini tashkil etadi.

Ko'plab tadqiqotlarda mактабгача yoshdagi bolalardagi kontsentratsiya qobiliyati ulardagи bir qator qobiliyatlarning rivojlanishi uchun asos bo'lishi ta'kidlab o'tilgan. Shunday tadqiqotlardan birida mактабгача ta'limda bolalarning ijtimoiy intellektini rivojlantirish jarayoni ularning aqliy rivojlanishi, turli ruhiy jarayonlar – diqqati, axborotni tushunishi, mulohaza yurita bilishi, idrok etish, ma'lumotlarni esda saqlash, fikrlash va muammoni hal qila olishi bilan tavsiflanishi keltirib o'tilgan.⁶

Mактабгача yoshdagi bolalarda kontsentratsiya qobiliyati ularning kognitiv rivojlanishi uchun muhim shart-sharoit vazifasini o'taydi. Sh.Xo'jamberdieva o'z tadqiqotida bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirish orqali kattalar bilan muloqot qilishdan zavq olish, o'qib berilayotgan asarni qiziqish bilan, diqqat bilan tinglash; asardan chalg'imaslik, takroriy tinglanayotgan tanish asarlar (ertak, hikoya va she'rlar)ni o'rganishda qahramonlarni illyustratsiya va o'yinchoqlar orqali nomlarini ayta bilish; badiiy asarlar mazmunini so'z, harakat, imo-ishorlar orqali ko'rsatib

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O'zbekiston Respublikasi mактабгача ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi to'g'risida”gi PQ-4312-sон Qarori / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019-y., 07/19/4312/3106-son; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son.

⁴ O'zbekiston respublikasi Mактабгача ta'lim vazirining 2018-yil 18-iyundagi 1450-sonli “Ilk va mактабгача yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida”gi Buyrug'i / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2018-y., 10/18/3032/1450-son.

⁵ O'zbekiston respublikasi Mактабгача ta'lim vazirligining “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi. –T.: 2018.

⁶ Ruziyeva G.A. Mактабгача ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhi bolalarining ijtimoiy intellektini rivojlantirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoref. – T.: 2023. – B. 10 (43).

bera olishi; tanish she'rlardagi so'zlar va qatorlarni eslab qolish asosida o'z nutqida ifoda eta olishga intilish; kichkintoylarga mo'ljallangan kitoblardagi illyustratsiyalarni ko'zdan kechirishga qiziqish bildirish kabilarda namoyon bo'lishini keltirib o'tgan⁷. Ta'kidlash lozimki, bolalardagi hikoya va ertaklarni tushunishi, anglashi, so'zlab berishi ularning kontsentratsiya qobiliyati bilan uzbek bog'liq.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kontsentratsiya qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik zarurati maktabgacha ta'lim pedagogik amaliyotida yangi yondashuvlar, texnologiyalarning keng va izchil joriy etilishi bilan izohlanadi. Z.M.Ashurova maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasini tadbiq etishga doir bo'lib, bundan asosiy maqsad bolalarda tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishdan iborat ekanligini ta'kidlab o'tadi. STEAM texnologiyasi markazida muammoli vaziyat turadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatida diqqatni faoliyatga qaratish; tanqidiy fikrlash; o'z fikrini mustaqil va aniq bayon eta olish; hamkorlikda ishlay olish; fazoda fikrlash; konstruktorlik faoliyatiga oid ko'nikmalar; tabiatni sevish va undagi hodisalarining o'zaro bog'liqligini tushunib anglash; estetik didning shakllanganligi; texnik faoliyatga qizish; mantiqiy amallarni tushunish ko'nikmalari vujudga keladi.⁸

B.X.Isaqulova o'zining didaktik o'yinlar vositasida maktabgasha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish metodikasini takomillashtirish borasidagi tadqiqotida didaktik o'yinlarning xususiyatlarini tahlil qilib, maktabgasha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish jarayonida ahamiyatli bo'lgan quyidagi xususiyatlarni aniqlashtiradi. Jumladan, didaktik o'yinlar bolalar faoliyatining ruhiy jarayonlarini (sezgi, idrok, fikrlash, tasavvur, xotira, ye'tibor, nutq, harakat) faollashtiishini keltirib o'tadi.⁹ Demak, didaktik o'yinlarning pedagogik samaradorligi bolalar faoliyatining ruhiy jarayonlari, jumladan kontsentratsiya qobiliyati bilan uzbek bog'liq.

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarda loyihalash kompetensiyasining rivojlanishi ham ulardagi kontsentratsiya qobiliyati bilan bog'liqlikda rivojlanadi. Loyihalash (lot. projectus – oldinga tashlangan) – amalga oshirish natijasida yangi mahsulot namunasi va uni olish usul, metod va texnologik ketma-ketligi yaratiladigan intellektual harakatlar majmui. D.D.Zuparova o'z tadqiqotlari natijasida, maktabgacha katta yoshdagi bolalar loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish bolalarni loyiha faoliyati orqali tahliliy **fikrlashga** o'rgatib borish ularning kelajakda barkamol inson bo'lib shakllanishi uchun sharoit yaratishini ta'kidlab o'tgan.¹⁰

Bolalarda kontsentartsiya qobiliyatini rivojlanishi ularda ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirishiga ham ta'siri kuchli. G.A.Ruzieva o'z tadqiqotida maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy intelektni rivojlantirish masalalarini tadqiq qilgan. Bolalarning "ijtimoiy intellekti – bu atrofdagi olamni, dunyoni samarali idrok etish va anglash uchun imkoniyat yaratadigan individual bilim tajribasini tashkil etishning o'ziga xos shakli. Ijtimoiy intellektual tarbiya atrof, dunyo haqidagi mayjud bilimlarning o'zaro ta'sirini anglatishni, ularni tizimlashtirishni, qiziqishlarni, ko'nikmalarni, xotirani, idrokni, fikrlashni, ya'ni barcha aqliy qobiliyatlarni shakllantirishni va rivojlantirishni o'z ichiga oladi".¹¹ Pedagogik kuzatishlar ijtimoiy odob-axloq me'yorlaridan og'ish kuzatilgan bolalarda diqqat yetishmovchiligi, diqqatini bir joyga to'play olmasligi kabi holatlar mavjudligini ko'rsatadi.

⁷ Xo'jamberdieva Sh.K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning metodik asoslarini takomillashtirish: pedagogika fanlari fan doktori (DSc) avtoref. – Namangan, 2023. – B. 14 (76).

⁸ Ashurova Z.M. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasidan foydalananishning didaktik mexanizmi: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoref. – Buxoro, 2023. – B. 17 (52).

⁹ Isaqulova B.X. Didaktik o'yinlar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish metodikasini takomillashtirish (tayyorlov guruhlari misoldida): pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoref. – Toshkent, 2023. – B. 13 (53).

¹⁰ Zuparova D.D. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar loyihalash kompetensiyasini dizayn asosida rivojlanish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. – T.: 2023. – B. 11 (60).

¹¹ Ruziyeva G.A. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhi bolalarining ijtimoiy intellektini rivojlantirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. – T.: 2023. – B. 15 (43).

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kontsentrasiya qobiliyati kundalik-hayotiy faoliyatda ham ularning kuzatuvchanligida ham namoyon bo'ladi. Maktabgacha bo'lgan bolalarda muloqotga doir tadqiqotida A.Isaboeva bolalar "atrofdagilarga taqlid qilganlari holda nafaqat to'g'ri talaffuzni, so'zni qo'llash, iboralar tuzish sirlarini, balki kattalarda uchraydigan nutq nomukammalliklarini ham o'zlariga qabul qilib oladilar"¹² degan xulosaviy mulohazani keltirib o'tgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalardagi intellektual va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning muhim pedagogik sharti, ta'lim faoliyatları jarayonida erkin ijodiy muhitning yaratilishi, tarbiyachilar va bolalarning birligidagi munosabatlari va o'zaro hamkorlikdagi harakatiga asoslangan o'qitish jarayonini yo'lga qo'yishdan iboratligini ilmiy jihatdan asosladi. Tadqiqotchi F.Shermonova bilvosita hozirgi globallashuv davrida bolalarda bolalar avvalgiga nisbatan ko'p axborot iste'mol qilishiga e'tibor qaratib, "bola ta'lim-tarbiya jarayonida o'z bilim va imkoniyatlari darajasini bilib yurishi, axborotlarni qabul qilishi, saralashi, qayta ishlashi, ulardan keladigan ijobiy natija va oqibatlarni diqqat markazida tahlil qila olishi, boshqalarning fikr-g'oyalalarini idrok qilishi, o'z barqaror nuqtai nazariga ega bo'lishi, o'z g'oyalalarini boshqa g'oyalarga taqqoslashni o'rghanishga majburligi hozirgi elektron asr – XXI asr talabiga aylandi"¹³ ta'kidlab o'tadi. Bolalardagi me'yordan ortiq axborot iste'moli ularning kontsentrasiya qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mazkur tadqiqot ishida ko'rsatib o'tilgan.

Bolalarda kontsentrasiyaning rivojlanishi ularning aktiv faoliyati bilan chmabrachas bog'liq. Bolalarning aktiv faoliyati o'yin, o'quv, mehnat va turmush faoliyati kun mobaynida bir necha bor o'zgaradi. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar 8 minutga yaqin aqliy faoliyat bilan faol shug'ullanishlari mumkin bo'lsa, katta maktabgacha yoshdagi bolalar esa ana shunday faoliyat bilan 12-14 ruminut shug'ullana oladilar. Shu vaqt o'tgandan so'ng ularda kontsentrasiya susayishi kuzatiladi. Mashg'ulotlar orasida va mashg'ulotning o'zida harakatli mashqlar (jismoniy tarbiya daqiqalari, jismoniy tarbiya tanaffuslari) dan ularni tetiklashtirish uchun foydalanilsa, ularning kontsentrasiyasi bir mucha ko'payadi.

Bolalarda kontsentrasiyani rivojlantiruvchi eng asosiy omillardan biri ularda qiziquvchanlik xususiyati hisoblanadi. Qiziquvchanlik bolaning tevarak-atrofdagi voqeahodisalarga, narsa va buyumlarga qiziqish bilan qarashida, hamma narsani ushlab, his qilib, diqqat bilan kuzatishida namoyon bo'ladi. Sayr, ekskursiya vaqtida tarbiyachi bolalarning diqqatini tabiatning rang-barangligiga, uning o'zgarishi va uyg'unligiga qaratadi, tabiat hodisalariga qiziqish uyg'otadi, unga muhabbat va ehtiyyotkorlik munosabatini tarbiyalaydi, asrabavaylashga o'rgatadi. Tarbiyachi kuzatishlar tashkil etib, bolalarda paydo bo'lgan savollarga o'z vaqtida javob berishga harakat qilishi, ularni mustaqil javob qidirishga undashi lozim bo'ladi. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini, ularning sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.

Bolalarda kontsentrasiyani rivojlantirishda o'yin faoliyatining ahamiyati katta. O'yin faoliyati bolalarning ixtiyoriy diqqatini oshiradi, bola irodasini, ijodiy fikrini rivojlantiradi. Bola ijodiy o'yinda aqliy jihatdan tarbiyalanadi va rivojlanadi.¹⁴ Shuningdek, mehnat faoliyati ham bolalarda kontsentrasiyani rivojlanishiga xizmat qiladi. Mehnat faoliyati bolalardan diqqat, o'tkir zehnililik, topqirlik, ijodkorlik, qobiliyatlarini egallashni talab etadi hamda bola nutqini yangi so'zlar bilan boyitadi.¹⁵

¹² Isaboeva A.Y. Maktabgacha yoshdagi bolalarni muloqotga o'rgatish texnologiyalarini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. – Namangan, 2023. – B. 11 (51).

¹³ Shermanova F.D. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini mediata'lim texnologiyalari asosida rivojlantirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. – Toshkent, 2023. – B. 11 (51).

¹⁴ Hasanboeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi // O'quv qo'llanma. – T.: "Ilm ziyo" nashriyoti, 2011. – B. 88 (186).

¹⁵ Hasanboeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi // O'quv qo'llanma. – T.: "Ilm ziyo" nashriyoti, 2011. – B. 100 (186).

Ma'lumki, inson aqli keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlanadi. U tafakkur va hayotni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisi bo'lib, aqliy faoliyat diqqatning har doim ma'lum maqsadga qaratilgan bo'lishini taqozo etadi. Insonning aqli uning asosiy faoliyatida erishgan muvaffaqiyati xususiyati bilan bog'lanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar kontsentratsiyasini rivojlantirish yo'llari va usullarini o'rganish muammosi pedagogikaning muhim muammolaridan biridir. Konsentratsiya atrof-olam, dunyoni anglashga qiziqish, noma'lum narsani bilish istagi – asosan o'qitish va faoliyat samaradorligini belgilaydigan ustuvor xususiyatlardan biridir. Kognitiv harakatlarni tashkil etish bolada allaqachon shakllangan ehtiyojlarga, shu jumladan kattalar bilan muloqot qilish zarurligiga asoslangan bo'lishi kerak (harakatlar, amallar, qarorlar, fikrlarni tasdiqlash).

Maktabgacha ta'limga tashkilotlarida tarbiyachi mashg'ulot rejasini tuzishda bolalarning xulq-atvori, qiziqishi, rivojlanish darajasiga qarab, yakka tartibdagi ishlar ham rejalaشتiradi. Unda umumiyo rivojlanishda biroz orqada qolayotgan, diqqati tarqoq, o'ziga ishonchi yo'q yoki o'zi to'g'risida yuqori flkrli bolalarga ko'proq e'tibor berish kerak.¹⁶ Guruhdagi bolalarda kontsentratsiya bilan bog'liq muammoli bolalar bo'lganida avvalambor ularni diqqatini bir joyga jalg qilish uchun kichik harakatli mashqni amalga oshirish lozim bo'ladi.

Bolalarda kontsentratsiyani rivojlantirish muammosining yana bir dolzarbligi shundaki, insonning tashqi dunyo bilan o'zaro aloqasi faqat uning diqqat-e'tibori va faolligi tufayli amalga oshadi, bu esa o'z navbatida anglash, tushunish, tafakkur qilishga yordam beradi. Kontsentratsiya bolaning faolligini, uning atrof-olamni bilishga bo'lgan ishtiyoyqini, noma'lumdan ma'lumni aniqlashga bo'lgan harakatini ta'minlaydi. Ilmiy adabiyotlarda "kontsentratsiya" tushunchasi turli talqinlarda ifoda etiladi. Kontsentratsiya bolaning o'zi mustaqil biron bir faoliyatga intilishini, insoniyat tomonidan ijtimoiy tajriba orqali to'plangan faoliyat usullarini o'zlashtirishini o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'limga tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli Qarori / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 1-son, 11-modda, 35-son, 923-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018-y., 06/18/5483/1594-son; 01.01.2020-y., 07/20/4555/4257-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'limga tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 37-son, 984-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydag'i "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'limga tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi to'g'risida"gi PQ-4312-sonli Qarori / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019-y., 07/19/4312/3106-son; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son.

4. O'zbekiston respublikasi Maktabgacha ta'limga vazirining 2018-yil 18-iyundagi 1450-sonli "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida"gi Buyrug'i / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2018-y., 10/18/3032/1450-son.

5. O'zbekiston respublikasi Maktabgacha ta'limga vazirligining "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. -T.: 2018.

¹⁶ Hasanboeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta'limga pedagogikasi // O'quv qo'llanma. – T.: "Ilm ziyo" nashriyoti, 2011. – B. 159 (186).

6. Ruziyeva G.A. Maktabgacha ta'limga tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarining ijtimoiy intellektini rivojlantirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoref. – T.: 2023. – B. 10 (43).
7. Xo'jamberdieva Sh.K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning metodik asoslarini takomillashtirish: pedagogika fanlari fan doktori (DSc) avtoref. – Namangan, 2023. – B. 14 (76).
8. Ashurova Z.M. Maktabgacha ta'limga STEAM texnologiyasidan foydalanishning didaktik mexanizmi: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoref. – Buxoro, 2023. – B. 17 (52).
9. Isaqulova B.X. Didaktik o'yinlar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish metodikasini takomillashtirish (tayyorlov guruhlari misolida): pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoref. – Toshkent, 2023. – B. 13 (53).
10. Zuparova D.D. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar loyihalash kompetensiyasini dizayn asosida rivojlantirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. – T.: 2023. – B. 11 (60).
11. Ruziyeva G.A. Maktabgacha ta'limga tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarining ijtimoiy intellektini rivojlantirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. – T.: 2023. – B. 15 (43).
12. Isabayeva A.Y. Maktabgacha yoshdagi bolalarni muloqotga o'rgatish texnologiyalarini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. – Namangan, 2023. – B. 11 (51).
13. Shermanova F.D. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini mediata'limga texnologiyalarini asosida rivojlantirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. – Toshkent, 2023. – B. 11 (51).
14. Hasanboeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta'limga pedagogikasi // O'quv qo'llanma. – T.: "Ilm ziyo" nashriyoti, 2011. – B. 88 (186).